

**NAMANGAN MUHANDISLIK-TEXNOLOGIYA INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/27.05.2020.I.66.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

NAMANGAN MUHANDISLIK-TEXNOLOGIYA INSTITUTI

XOLMIRZAYEV ABDULXAMID XAPIZOVICH

**KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISH ORQALI
KAMBAG‘ALLIKNI QISQARTIRISH IMKONIYATLARI
(Namangan viloyati misolida)**

08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti

**IQTISODIYOT FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
экономическим наукам**

**Contents of the Dissertation Abstract of doctor of philosophy (PhD) in
Economics Sciences**

Xolmirzayev Abdulxamid Xapizovich

Kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirish orqali kambag‘allikni qisqartirish
imkoniyatlari (Namangan viloyati misolida) 3

Холмирзаев Абдулхамид Хапизович

Возможности сокращения бедности за счет развития малого бизнеса и
предпринимательства (на примере Наманганской области) 25

Kholmirzayev Abdulxamid Khapizovich

Opportunities for poverty reduction through small business and entrepreneurship
development (in the example of Namangan region) 49

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of published works 55

**NAMANGAN MUHANDISLIK-TEXNOLOGIYA INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/27.05.2020.I.66.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

NAMANGAN MUHANDISLIK-TEXNOLOGIYA INSTITUTI

XOLMIRZAYEV ABDULXAMID XAPIZOVICH

**KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISH ORQALI
KAMBAG‘ALLIKNI QISQARTIRISH IMKONIYATLARI
(Namangan viloyati misolida)**

08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti

**IQTISODIYOT FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2020.4PhD/Iqt1531 raqam bilan ro'yhatga olingan.


Dissertatsiya ishi Namangan muhandislik-texnologiya institutida bajarilgan.
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.nammtl.uz) va "Ziyonet" axborot ta'lim portaliga (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	Israilov Rustambek Ibragimovich iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rasmiy opponentlar:	Matkarimov Kamoliddin Jo'rabayevich iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor Aripov Oybek Abdullayevich iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Yetakchi tashkilot:	Andijon mashinasozlik instituti

Dissertatsiya himoyasi Namangan muhandislik-texnologiya instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/27.05.2020.I.66.03 raqamli Ilmiy kengashning 2024-yil "12" "08" soat 9:00 da majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 160115, Namangan shahri, Kosonsoy ko'chasi, 7-uy. Tel.: (0569) 228-76-71, faks: (0569) 228-76-75, e-mail: nei_info@edu.uz).

Dissertatsiya bilan Namangan muhandislik-texnologiya institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (200-raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 160115, Namangan shahri, Kosonsoy ko'chasi, 7-uy. Tel.: (0569) 228-76-71).

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil "25" "07" kuni tarqatildi.
(2024-yil "25" "07" daqi "11" raqamli reyestr bayonnomasi).



Sh.D.Sayltbayev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
raisi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sh.Z.Muxitdinov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
koshi, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc),
dotsent

K.J. Matkarimov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi, iqtisodiyot
fanlari nomzodi, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon taraqqiyotida ijtimoiy tavsifning kuchayishi sharoitida aksariyat mamlakatlar tomonidan kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish orqali kambag'allikni qisqartirishning muhim dastagi sifatida samarali foydalanilmoqda. AQSh, Xitoy, Buyuk Britaniya, Kanada, Shveysariya, Yaponiya, Germaniya, Norvegiya, Niderlandiya, Birlashgan Arab Amirliklari va boshqa bir qator davlatlarda kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirishning eng ilg'or tajribalari amaliyotda qo'llanilib kelinadi. Ba'zi bir mamlakatlarda, jumladan, "Sharqiy va Janubiy-Sharqiy Osiyodagi ko'plab mamlakatlarda kambag'allikni kamaytirish bo'yicha sezilarli yutuqlarga erishildi, biroq Sahroi Kabirda, janubiy Afrikada aholining taxminan 42 foizi hanuzgacha o'ta qashshoqlikda yashaydi"¹. Kambag'allikni qisqartirishning bosh omili sifatida kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirish, tadbirkorlarga shart-sharoitlar yaratish, tadbirkorlik faoliyatlarini rag'batlantirish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish zarur bo'ladi.

Jahonning rivojlangan mamlakatlarida kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirish, iqtisodiy va moliyaviy barqarorligini ta'minlash, davlat tomonidan boshqarish va qo'llab-quvvatlash, tashkiliy va iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish yuzasidan qator ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Kambag'allik darajasining ortishi sabablarini aniqlash, kambag'al aholi qatlami ulushini kamaytirish, sifatli ta'lim, tibbiyot va ijtimoiy himoyani takomillashtirish orqali barqaror rivojlanishni ta'minlash, kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirish orqali kambag'allikni qisqartirish, mahalliy shart-sharoitlarni hisobga olgan holda hududlarda tadbirkorlikni rivojlantirish yo'li bilan ish o'rinlari yaratish hamda aholi daromadini ortishiga qaratilgan yondashuvlarni ishlab chiqish bu boradagi ilmiy tadqiqotlarning ustuvor yo'nalishlaridan hisoblanadi.

O'zbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning hozirgi bosqichida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni tashkil etish va rivojlantirish masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Kambag'allik darajasini qisqartirish bilan bog'liq ta'sirchan choralar ishlab chiqilib, tizimli vazifalar belgilab berilmoqda. "Hududlarda, ayniqsa, qishloqlarda aholining aksariyat qismi yetarli daromad manbaiga ega emasligi sir emas. Har qanday mamlakatda bo'lgani kabi bizda ham kam ta'minlangan aholi qatlamlari mavjud. Turli hisob-kitoblarga ko'ra, ular taxminan 12-15 foizni tashkil etadi. Bu o'rinda gap kichkina raqamlar emas, balki aholimizning 4-5 millionlik vakillari haqida bormoqda"². Mamlakatda aholining farovonligini ta'minlash va kambag'allik darajasiga tushib qolgan aholi qatlamining ulushini kamaytirish masalasi iqtisodiy islohotlarning eng dolzarb muammolari sifatida qaralib, tadbirkorlik faoliyatini yanada rivojlantirish orqali kambag'allikni qisqartirishning asosiy yo'nalishlariga bag'ishlangan ilmiy tadqiqot ishlari dolzarb hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 18 yanvardagi PF-60-son "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi

¹ <https://www.un.org/ru/global-issues/ending-poverty>

² O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasi. 20.12.2022 y. // <https://president.uz/uz/lists/view/5774>

to'g'risida", 2023 yil 12 iyundagi PF-91-son "Aholini hunarmandchilikka jalb qilish va hunarmandchilik faoliyatini rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to'g'risida", 2020 yil 26 martdagi PF-5975-son "Iqtisodiyotni rivojlantirish va kambag'allikni qisqartirishga oid davlat siyosatini tubdan yangilash chora tadbirlari to'g'risida", 2021 yil 3 dekabrda PF-29-son "Mahallada tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta'minlash va kambag'allikni qisqartirish bo'yicha davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlari to'g'risida"gi farmonlari, 2021 yil 20 dekabrda PQ-55-son "Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish va aholini daromad manbaini kengaytirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 9 avgustda 504-son "Hududlarda "Mahallabay" ishlash asosida oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish va aholining doimiy daromad manbalarini ko'paytirish orqali kambag'allikni qisqartirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2021 yil 5 aprelda 183-son "Kambag'al va ishsiz fuqarolarni kasb-hunarga o'qitish tizimini takomillashtirish hamda mehnat organlari faoliyati samaradorligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari hamda aholi farovonligini oshirish va kambag'allikni qisqartirishga tegishli bo'lgan boshqa me'yoriy-huquqiy xujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur tadqiqot ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari taraqqiyotining asosiy ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. "Demokratik va huquqiy jamiyatni ma'naviy-ahloqiy va madaniy rivojlantirish, innovasion iqtisodiyotni shakllantirish" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Kichik biznesni rivojlantirish va uning iqtisodiy samaradorligini oshirish hamda kambag'allikni qisqartirish muammolari yuzasidan xorijlik iqtisodchi olimlar A.Smit, D.Rikardo, A.Ditont, P.A.Samuelson, V.D.Nordxaus, Ch.But, F. Fon Xayek, P.J.Prudon va boshqalar ilmiy tadqiqot ishlarini olib borganlar³.

MDH mamlakatlarida A.A.Savichev, V.A.Rojkovskiy, A.V.Soy, Ye.L.Aleksandrov, O.E.Aleksandrova, Ye.S.Balabanova, Ye.I.Beglova, L.A.Elovikov, I.V.Shugaeva, A.A.Razumov, O.V.Selivanova, L.A.Zubkevich kabi iqtisodchilarning ilmiy asarlarida kambag'allikni qisqartirishda kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari o'z aksini topgan⁴.

³ Смит А. Исследование о природе и причинах богатства народов. – М.: ЭКСМО, 2007. – с. 960; Рикардо Д. Начала политической экономии и налогового обдажения./Пер.анг.-М:Эксмо, 2016 г; Deaton A. (2013) The Great Escape: Health, Wealth, and the Origins of Inequality, Princeton, N.J.: Princeton University Press. Пол А. Самуэлсон, Вилиам Д.Нордхаус. Экономика: Пер с англ. –М.: «Лаборатория Базовых Знаний», 2000. -800 с.: ил. Boot Ch. Life and London of the people in London [Electronic resource] / Ch. Boot. – URL: <https://archive.org/details/lifelabourofpeop07bootiala>. Хайек , Ф. А. фон, Дорога к рабству : пер. с англ. / Ф. А. Хайек. – М.: Экономика, 1992. – 176 с. Прудон, П.-Ж. Бедност как экономический принцип: пер. с фр. / П.-Ж. Прудон. – М.: Посредник, 1908. – 29 с.

⁴Савичев А.А. Факторы и условия устойчивого развития малого и среднего предпринимательство // Вестник университета. 2015, №4. С. 144-149; Рожковский В.А. Малый бизнес как фактор устойчивого развития сельских территорий // Вестник Алтайского государственного аграрного университета. 2016, № 4 (138). С. 189-193; Цой А.В. Развитие малого предпринимательства как одно из основных направлений устойчивого развития экономики // Вестник РМАТ. 2016, № 2. С. 32-36; Александров Е.Л., Александрова О.Е. Меры борьбы бедностю: Зарубежный и отечественный опыт. // Ж. Фундаментальные исследования. №9, 2015. С. 102.

O'zbekistonda kichik biznesni rivojlantirish va kambag'allikni qisqartirishda tadbirkorlikni tutgan o'rnining umumiy jihatlari S.S.G'ulomov, Yo.Abdullayev, B.Yu.Xodiyev, M.S.Qosimova, S.K.Salayev, U.V.Gafurov, Sh.I.Mustafaqulov, M.Z.Muxiddinova, M.X.G'aniyev, B.Pardayeva va boshqalarning ishlarida ilmiy asoslab berilgan⁵.

Globalashuv jarayonlarida alohida olingan hududlarda kambag'allikni qisqartirish omillarini tadqiq etish, ishbilarmonlik muhitini qulay shart-sharoitlari va imkoniyat yaratish to'liq o'rganilmagan. Shu bois mazkur tadqiqotni olib borish dolzarb ahamiyatga ega hisoblanadi.

Dissertatsiya ishining davlat dasturlari yoki ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Mazkur dissertatsiya tadqiqoti Namangan muhandislik texnologiya institutining ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq, ITM-6 "Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni barqaror rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari" mavzusidagi amaliy loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi kichik biznes va tadbirkorlik subyektlarini rivojlantirish hamda samaradorligini oshirish orqali kambag'allikni qisqartirishga oid ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iboratdir.

Tadqiqotning vazifalari:

kambag'allikning mazmun-mohiyati, uni tadbirkorlik faoliyatiga integratsiyalashuvining tadrijiy-nazariy konsepsiyalarini asoslash;

kambag'allikning kelib chiqish sabablari, turlari va tadbirkorlik faoliyatini rivojlanishiga ta'sirini ilmiy asoslash;

kichik biznesni rivojlantirish shart-sharoitlari, imkoniyatlari va kambag'allikka qarshi kurashishning muhim strategiyalariga doir ilmiy tavsiyalar berish;

kichik biznes va kambag'allik holatini baholashga doir metodologik uslubiy tavsiyalar ishlab chiqish;

jahonda global kambag'allikning tadbirkorlik rivojiga ta'sirining ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlarini o'rganish;

Балабанова Е.С. Стратегии совладения с жизненными трудностями: самостоятельность или зависимость? // Экономическая социология. – 2002. –Т. 3. – С. 59–78.; Беглова Е.И. Бедность как социально-экономическое явление. Автореф. Дисс. На соискан. Ученой степени докт. Экон. Наук. Санкт-Петербург.: 2014. С. 11.; Еловигов Л.А. Социальная политика: Учебное пособие. –Омск: Омск.гос.университет, 2002. С. 26. Шугаева И.В. Методологические аспекты феномена бедности в современном обществе. // Электронное научное издание «Ученые заметки ТОГУ» 2016, Том 7, №4, С. 844. Разумов А.А., Селиванова О.В. Бедность в России: Региональные особенности и перспективные инструменты снижения ее уровня. // Социально-трудовые исследования. №4. 2021. С. 77. Зубкевич Л.А. Влияние бедности как социального феномена на мировоззрение людей в современных условиях общественного развития (социально-философский анализ). // Векторы благополучия: экономика и социум. 2019. № 4 (35). С. 107.

⁵ G'ulomov S.S. Tadbirkorlik va kichik biznes. –Т.: 2002. –256 b.; Abdullaev Yo. Kichik biznes va tadbirkorlik asoslari, 100 savolga - 100 javob. –Т.: Mehnat. 2002. -157 b.; Xodiev B.Yu., Qosimova M.S. va boshqalar. Kichik biznesni boshqarish. –Т.: 2003. –258 b.; Salaev S.K. Kichik biznes rivojlanish tendensiyalarini modellashtirish va bashoratlash. i.f.d. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. –Т.: 2007.-14 b; Gafurov U.V. Kichik biznesni davlat tomonidan tartibga solishning iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish.: iqt.fan.dok...diss. –Т. O'zBMA. 2017. – 274 b.; Mustafaqulov Sh. (2020) Kambag'allik ayb emas, biroq... Xalq so'zi, 25.03.2020 y. № 62 (7564). Muxitdinova M.Z. Aholi turmush darajasini baholash: tahlil va samara. - Xalqaro moliya va hisob ilmiy elektron jurnali. № 2, aprel, 2019 yil. G'aniyev M.X. " Innovatsion iqtisodiyotni shakillantirish sharoitida aholi farovonligini oshirish va kambag'allikni qisqartirish yo'nalishlari" dissertatsiya Toshkent-2023 yil; Пардаева Б. Состав доходов и социальная защита населения. 19-е Международное Плехановские чтения. – М.: 2006. –С. 32-33.

kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirish bilan kambag'allikni qisqartirishga ijobiy ta'sirini tahlil etish, muammolarini aniqlash;

alohida olingan hududlarda kichik biznesni rivojlantirishning o'ziga xos jihatlarini o'rganish masalalari va kambag'allikka qarshi kurashish chora-tadbirlarini tadqiq etish;

tadbirkorlikni rivojlantirish yo'li bilan kambag'allikni qisqartirish, inklyuziv iqtisodiy o'sishni ta'minlash bo'yicha ilmiy-amaliy tavsiyalarni shakllantirish;

tadbirkorlikni rivojlantirishning taraqqiyot strategiyalarini aniqlash, kambag'allikni qisqartirishga doir dasturiy ta'minotlarni ishlab chiqish.

Tadqiqotning ob'ekti sifatida Namangan viloyatidagi kichik biznes va tadbirkorlik subyektlari hamda hududlardagi kambag'al aholi qatlamlari olingan.

Tadqiqotning predmeti tadbirkorlikni rivojlantirish orqali kambag'allikni qisqartirish bilan bog'liq munosabatlar yig'indisi hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida tizimli tahlil, iqtisodiy statistik, monografik tahlil, guruhlash, solishtirma tahlil va qo'yilgan muammolarga mantiqan yondashish va olingan ma'lumotlarni qiyosiy tahlil qilish, korelyatsion va regression tahlil, ijtimoiy kuzatuv usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

uslubiy yondashuvga ko'ra "kambag'allik" tushunchasining iqtisodiy mazmuni insonning moddiy, moliyaviy, ma'naviy jihatdan eng quyi talab-ehtiyojlarini qondirish imkonini bermaydigan, daromadning yetishmasligi hamda jur'atsizlik, kuchsizlik va yuqori iqtisodiy ishonchsizlikni keltirib chiqaruvchi, jamiyat a'zolarining oddiy munosabatlar, hayotiy an'analar, iqtisodiy faoliyatdan chetlatilgan holatda yuzaga keluvchi ijtimoiy-iqtisodiy jarayon nuqtai nazaridan takomillashtirilgan;

hududdagi tadbirkorlikni tartibga soluvchi idoralar tomonidan kichik biznes korxonalariga xodimlarni kam ta'minlangan oila vakillari tarkibidan ishga qabul qilingan hollarda tadbirkorlik subyektini mahalliy ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasi xizmatlari bilan ta'minlash orqali qo'llab-quvvatlash taklifi asoslangan;

hududdagi yuqori samarali faoliyat yuritayotgan tadbirkorlik subyektlarining kambag'al toifasiga kiritilgan aholi ixtiyoridagi mavjud iqtisodiy resurslardan tadbirkorlik yo'nalishida foydalanish bo'yicha o'zaro hamkorlik shakllarining tajriba-namunalarini yaratish taklifi asoslangan;

Namangan viloyatida kichik biznesni rivojlantirish orqali kambag'allikni qisqartirishga ta'sir ko'rsatuvchi omillar o'rtasidagi bog'liqlikni ifodalovchi ekonometrik modellar asosida kichik biznes subyektlarida ishlovchilar soni va mahsulot (ish, xizmat)lar sotishdan tushumning 2028 yilga qadar prognoz ko'rsatkichlari ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijasi quyidagilardan iborat:

kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirish, faolligini yanada oshirish kambag'allikni qisqartirish bo'yicha ishlab chiqilgan ilmiy-amaliy, nazariy yondashuvlar moliyaviy-iqtisodiy holatini real tahlil qilishda yordam berishi hamda istiqbol dasturlarini rejalashtirishda samara berishi asoslangan;

kichik biznes va tadbirkorlik subyektlari faoliyati bo'yicha iqtisodiy

samaradorlikka erishishni ta'minlashga yo'naltirilgan nazariy-amaliy hamda uslubiy ishlanmalar ishlab chiqilgan;

kambag'allik darajasining kamayishi va aholi bandligining oshishi tadbirkorlik subyektlarida faoliyat yuritayotgan xodimlarning mehnat sharoitlarini, uning ijodkorlik mazmunini yanada boyitishga, aqliy hamda jismoniy mehnat o'rtasidagi farqning yo'qolishiga olib kelishi asoslangan;

tadbirkorlik faoliyatining rivojlanishi o'zida shaxsning har tomonlama kamol topishi, uning qobiliyatlaridan unumli foydalanishga olib kelishi, ijtimoiy samara xodimlarning bilim va malakasi, tajriba, madaniyatining o'sishiga, aholi sog'ligini yaxshilanish, umr ko'rishini uzaytirishga ta'sir ko'rsatishi asoslangan;

milliy iqtisodiyotda tadbirkorlik subyektlarining rivojlanishi kambag'allik darajasini minimumga keltirishga, kichik biznesni yalpi hududiy va milliy mahsulotdagi ulushini ko'payishiga, byudjet tizimi daromadini o'sishiga ta'sir etishi asoslangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi iqtisodchi olimlar va amaliyotchi mutaxassislarining tadbirkorlikni rivojlantirish orqali kambag'allikni qisqartirishga oid ilmiy-nazariy qarashlarini qiyosiy va tanqidiy tahlil qilish, ilg'or xorij tajribasini o'rganish, bir tizimga solish va umumlashtirish, axborotlar bazasining milliy va xalqaro nufuzli tashkilotlarning rasmiy manbalaridan olinganligi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligining ma'lumotlari hamda boshqa rasman e'lon qilingan amaliy ma'lumotlar tahliliga asoslanganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati unda ishlab chiqilgan ilmiy xulosa va tavsiyalardan, ya'ni tadbirkorlik subyektlarida mehnat daftarchalari mavjud xodimlarning o'rtacha yillik sonini aniqlash, kambag'allik darajasi ko'rsatkichlarini baholash usullari, kichik biznesda kambag'allikni uzviylik ko'rsatkichlarini baholash, zamonaviy iqtisodiy moliyaviy tafakkurni shakllantirish, kengaytirish modellaridan, inklyuziv iqtisodiy o'sishning asosiy tamoyillaridan, milliy iqtisodiyot tarmoq, sohalari bilan bog'liq subyektlarning o'rtacha aylanmalari hamda ko'rsatkichlariga asoslanib kambag'allikni muammolarini yanada chuqur o'rganishga bag'ishlangan ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirishda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati unda erishilgan amaliy tavsifdagi takliflardan O'zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasi, kichik biznes va tadbirkorlikni davlat tomonidan tartibga solishning boshqaruv organlari faoliyati samaradorligini oshirishda, ushbu sektorni rivojlantirishga bag'ishlangan maqsadli dasturlar va konsepsiyalar ishlab chiqishda, shuningdek, tadqiqot ishida ilgari surilgan g'oyalardan oliy o'quv yurtlarida "Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik asoslari", "Tadbirkorlik va biznes yuritish ko'nikmalari", "Makroiqtisodiyot", "Ijtimoiy iqtisodiyot", "Mikroiqtisodiyot" fanlari o'quv dasturlarini takomillashtirish, darslik, o'quv va uslubiy qo'llanmalar tayyorlashda, talabalar, bilim, malaka, ko'nikmalarini shakllantirishda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirish hamda kambag'allikni qisqartirishning asosiy yo'nalishlari bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

uslubiy yondashuvga ko'ra "kambag'allik" tushunchasining iqtisodiy mazmunini insonning moddiy, moliyaviy, ma'naviy jihatdan eng quyi talabehhtiyojlarini qondirish imkonini bermaydigan, daromadning yetishmasligi hamda jur'atsizlik, kuchsizlik va yuqori iqtisodiy ishonchsizlikni keltirib chiqaruvchi, jamiyat a'zolarining oddiy munosabatlar, hayotiy an'analar, iqtisodiy faoliyatdan chetlatilgan holatda yuzaga keluvchi ijtimoiy-iqtisodiy jarayon nuqtai nazaridan takomillashtirishga oid nazariy-uslubiy ma'lumotlardan oliy o'quv yurtlari talabalari uchun tavsiya etilgan "Kichik biznesda soddalashtirilgan buxgalteriya hisobi" nomli darslikni tayyorlashda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023 yil 17 iyuldagi 314-sonli buyrug'i). Ushbu taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida talabalarda jamiyat a'zolarining oddiy munosabatlar, hayotiy an'analar, iqtisodiy faoliyatdan chetlatilgan holatda yuzaga keluvchi ijtimoiy-iqtisodiy jarayon nuqtai nazaridan takomillashtirilgan "kambag'allik" tushunchasining iqtisodiy mazmuni bo'yicha nazariy bilimlarni kengaytirish imkoni yaratilgan;

hududdagi tadbirkorlikni tartibga soluvchi idoralar tomonidan kichik biznes korxonalariga xodimlarni kam ta'minlangan oila vakillari tarkibidan ishga qabul qilingan hollarda tadbirkorlik subyektini mahalliy ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasi xizmatlari bilan ta'minlash orqali qo'llab-quvvatlash taklifi O'zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasi tomonidan "Hududlarda kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirish orqali kambag'allikni qisqartirish dasturi"ni ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasining 2024 yil 24 iyundagi 9/04-25-10530-son ma'lumotnomasi). Ushbu taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida Namangan viloyatidagi ishsiz fuqorolarning bandligini ta'minlashga va ularning kambag'allikka tushib qolishini oldini olishga xizmat qilgan va viloyatda kichik biznesni rivojlantirish orqali kambag'allik darajasini 0,3 foizga kamaytirish imkoni yaratilgan;

hududdagi yuqori samarali faoliyat yuritayotgan tadbirkorlik subyektlarining kambag'al toifasiga kiritilgan aholi ixtiyoridagi mavjud iqtisodiy resurslardan tadbirkorlik yo'nalishida foydalanish bo'yicha o'zaro hamkorlik shakllarining tajriba-namunalarini yaratish taklifi O'zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasi tomonidan "Hududlarda kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirish orqali kambag'allikni qisqartirish dasturi"ni ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasining 2024 yil 24 iyundagi 9/04-25-10530-son ma'lumotnomasi). Ushbu taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida Namangan viloyatidagi kambag'al toifasiga kiritilgan aholi ixtiyoridagi mavjud iqtisodiy resurslardan tadbirkorlik yo'nalishida foydalanish asosida kambag'allik darajasiga tushgan ayollar va yoshlarni, aholining ma'lum qatlamlarini kambag'allikdan chiqarish va barqaror daromad manbaiga ega bo'lishiga asos yaratilgan;

Namangan viloyatida kichik biznesni rivojlantirish orqali kambag'allikni qisqartirishga ta'sir ko'rsatuvchi omillar o'rtasidagi bog'liqlikni ifodalovchi ekonometrik modellar asosida kichik biznes subyektlarida ishlovchilar soni va mahsulot (ish, xizmat)lar sotishdan tushumning 2028 yilga qadar ishlab chiqilgan

prognoz ko'rsatkichlaridan O'zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasi tomonidan "Hududlarda kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirish orqali kambag'allikni qisqartirish dasturi"ni ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasining 2024 yil 24 iyundagi 9/04-25-10530-son ma'lumotnomasi). Ushbu taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida Namangan viloyatidagi kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirish orqali kambag'allikni qisqartirishning istiqboldagi asosiy parametrlarini aniqlashtirish hamda o'zaro muvofiqlashtirish imkoni yaratilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 15 dan ortiq, jumladan 12 ta respublika va 4 ta xalqaro ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarning e'lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 20 dan ortiq ilmiy ish, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish bo'yicha tavsiya etgan ilmiy nashrlarda 6 ta ilmiy maqola, jumladan, 4 tasi respublika va 2 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiya hajmi 153 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslab berilgan, tadqiqotning maqsadi aniqlanib, vazifalari belgilangan hamda ob'ekti va predmeti shakllantirilgan, O'zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilishning sinovdan o'tganligi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi "**Tadbirkorlikni rivojlantirish bilan kambag'allikni qisqartirishning nazariy asoslari**" deb nomlangan. Ushbu bobda kambag'allik mazmuni, mohiyati, turlari va uni tadrijiy-nazariy asoslari ochib berilgan. Kambag'allikka qarshi kurashishning muhim strategiyalari va kichik biznesni rivojlantirish shartlari yoritilgan. Jahon mamlakatlarida tadbirkorlikni rivojlantirish yo'li bilan kambag'allikni qisqartirishga oid tajribalar o'rganilgan.

Iqtisodchi Sh.Mustafaqulov va boshqalar kambag'allikka nisbatan o'z yondashuvini bayon etib, "kambag'allik – turmush kechirish, mehnat layoqatini saqlab turish, avlodlar uzviyligini davom ettirish uchun zarur bo'lgan eng kam ehtiyojlarni qondirish imkoniyatiga ega bo'lmagan shaxs yoki ijtimoiy guruhlar iqtisodiy ahvolining ko'rsatkichidir"⁶, deb ta'kidlaydi. Kambag'allik holati moddiy, moliyaviy resurslarning uzoq davr mobaynida yetarli bo'lmasligini,

⁶ Mustafaqulov Sh.I., Murodullaev N., Xamidov R. O'zbekistonda kambag'allikni aniqlash va qisqartirish davlat siyosati darajasida. // «Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar» Ilmiy elektron jurnal. № 1, 2020.

jang'arma bilan iste'mol o'rtasidagi nisbatni buzilishi, qiymati yuqori tovarlarni xarid qilishdan vaqtincha tejash hisobiga to'plangan mablag' bilan qoplash imkoniyati mavjud emasligidan dalolat beradi.

Mamlakatimizda olib borilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarning asosiy maqsadi aholining turmush darajasini oshirishdan iborat. Bunga milliy iqtisodiyotning barcha tarmoq, sohalarida tadbirkorlikni muntazam rivojlantirish yo'li bilan erishiladi. Tadbirkorlik mamlakat aholisini bandligini ta'minlash orqali ularning daromadlilik darajasini oshirishga va turmush darajasini yuksaltirishga xizmat qiladi.

Yangi O'zbekistonda olib borilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar xalq uchun ularning bugungi kundan rozi bo'lib yashashlari uchun xizmat qilishi zarur. Bunda jamiyatning iqtisodiy negizini xilma-xil shakllardagi mulk tashkil etadi. Muhimi tadbirkorlar qonunchilikka muvofiq har qanday faoliyatni amalga oshirishga va o'z faoliyati yo'nalishlarini mustaqil ravishda tanlashga haqliligi bosh Qomusimizda belgilab qo'yilgan⁷. Demak O'zbekistonda tadbirkorlik va kichik biznesni rivojlantirish orqali aholi daromadligini ta'minlash, doimiy ish o'rinlariga ega bo'lishi, kambag'allikni kamaytirishning huquqiy me'yoriy asoslari mavjud.

Yuqoridagilardan shunday xulosa qilish mumkinki, "kambag'allik" tushunchasining iqtisodiy mazmuni insonning moddiy, moliyaviy, ma'naviy jihatdan eng quyi talab-ehtiyojlarini qondirish imkonini bermaydigan, daromadning yetishmasligi hamda jur'atsizlik, kuchsizlik va yuqori iqtisodiy ishonchsizlikni keltirib chiqaruvchi, jamiyat a'zolarining oddiy munosabatlar, hayotiy an'analar, iqtisodiy faoliyatdan chetlatilgan holatda yuzaga keluvchi ijtimoiy-iqtisodiy jarayon hisoblanadi. Jamiyatni tashkil etuvchi shaxslar yoki oilalarga tegishli turli resurslarning hajmi o'rtacha hajmdan anchagina past bo'lib, haqiqatda bunday jamiyat a'zolari oddiy munosabatlardan, hayotiy an'analardan, faoliyatdan chetlatilgan taqdirda kambag'allik yuzaga keladi.

Global kambag'allikka qarshi kurashishda rivojlangan mamlakatlar turlicha yondashib, muayyan yutuqlarga erishdilar. Ularning eng katta yutug'i asosan ijtimoiy davlat bozor iqtisodiyoti g'oyasi deb hisoblash mumkin. Mavjud mamlakatlarda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishga ham bir qator chora-tadbirlar ko'rib borildi (1-jadval).

Kichik biznesning rivojlanishi mamlakat iqtisodiyotining turli soha tarmoqlarini rivojlantirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi, ammo davlat ko'magisiz kichik biznes tanazzulga uchrashi va kambag'allikni avj olishiga olib kelishi mumkin. Sababi davlat bozor munosabatlarini rivojlantirish va halol raqobat uchun shart-sharoitlar yaratadi, iste'molchilarning huquqlari usuvorligini hisobga olgan holda iqtisodiy faoliyat, tadbirkorlik va mehnat qilish erkinligini kafolatlaydi⁸. Aks holatlarda bunga yo'l qo'ymaslik maqsadida O'zbekistonda kambag'allikka barham berish strategiyasini ishlab chiqilgan.

⁷ O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Rasmiy nashr. Toshkent: "O'zbekiston" nashriyoti, 2023 y. 38-39 betlar.

⁸ O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Rasmiy nashr. Toshkent: "O'zbekiston" nashriyoti, 2023 y.

Mamlakatlarning kambag‘allikka qarshi kurashishdagi asosiy yutuqlari⁹

Mamlakatlar	Kambag‘allikka qarshi kurashdagi yutuqlar
Germaniya	Ijtimoiy sug‘urta sohasidagi muhim o‘zgarishlar, ijtimoiy himoya esa dunyodagi eng samarali vositalardan biridir.
AQSh	An’anaviy tarzda keng ko‘lamli xayriya fondlari amaliy tajribasini qo‘llanilishi va fond mablag‘lari qiymatining muntazam oshirib borilayotganligi bilan tavsiflanadi.
Niderlandiya	Kambag‘al fuqarolarning muammolarini hal qilishda mahalliy hokimiyat organlarini jalb etilishi bilan xarakterlanadi.
Xitoy	Qashshoqlikka qarshi kurash mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish strategiyasining bir qismiga aylandi. Bandlikni faol qo‘llab-quvvatlash va xususiy tadbirkorlikni yo‘lga qo‘yish bilan bir qatorda, kambag‘allarga yordam puli berish ham yil sayin ortib bordi. Tadqiqot natijalari ko‘rsatishicha, so‘nggi yillarda muhtoj odamlar soni deyarli 10 baravar, ya’ni, 23,6 milliongacha kamaydi. Barqaror daromadli yangi o‘rta sinf soni allaqachon 150 million kishiga yetdi (mamlakat aholisining taxminan 11,5%).

Kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirishga bo‘lgan to‘siqlarni bartaraf etish uchun ustuvor yo‘nalishlarni belgilab olingan. Buning uchun davlat siyosatini ustuvor yo‘nalishlardagi vazifalarni hal etishga qaratish maqsadga muvofiqdir. Bu esa o‘z-o‘zidan mamlakatning iqtisodiy taraqqiyotiga ta’sir ko‘rsatib, makroiqtisodiy jihatdan ijobiy natijalarni berishga olib keladi (1-rasm).


Dissertatsiya ishining **“Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish bilan kambag‘allikni qisqartirish masalalari”** deb nomlangan ikkinchi bobida mamlakatimizda, Namangan viloyatida tadbirkorlikni kambag‘allikni qisqartirishdagi o‘rni, kambag‘allikka qarshi kurashish omillari, kichik biznesdagi mehnat daftarchalari mavjud xodimlarning o‘rtacha sonini tumanlar kesimida aniqlash, kichik biznes xo‘jalik subyektlarida kambag‘allik aholi qatlamini bandligini ta’minlashga oid tadqiqotlar olib borilgan.

Tadqiqotlardan aniqlanishicha 2022 yilda O‘zbekiston bo‘yicha Jini koeffitsiyenti¹⁰ yoxud daromadlar tengsizligi indeksi 2021 yildagi 0,329 dan 0,327 gacha qisqargan, bu esa bozor munosabatlari chuqurlashgani sari butun dunyoda bo‘lgani kabi mulk jihatidan tabaqalashish O‘zbekiston uchun ham xosligidan darak beradi. Shu bilan birga, mazkur jarayon yetarli darajada o‘rtacha xarakterga ega bo‘lib, bu hukumat siyosatidagi inklyuziv yondashuvdan dalolat beradi¹¹.

⁹ Manbalar: Богданова В.П., Родионова С.Д. Особенности социального управления преодолением бедности в Российских условиях. // Фундаментальные исследования. №12, 2014. 2253-2254 стр.; Аникин, В. Бедность и неравенство в странах БРИКС: российская специфика [Электронный ресурс]. / В. Аникин, Н. Тихонова. / – Режим доступа: <https://www.hse.ru/pubs/share/direct/document/179645132>. –17.05.2018

¹⁰ Izoh: Djini koefitsienti 0 dan 1 raqamigacha qiymatlarni qabul qilishi mumkin. Uning qiymati noldan qanchalik uzoqlashib, 1 raqamiga yaqinlashsa, daromad aholining ma’lum guruhleri qo‘lida shunchalik ko‘p to‘planadi va mamlakatdagi ijtimoiy tengsizlik darajasi shunchalik yuqori bo‘ladi va aksincha 1 raqamidan qancha uzoqlashib 0 raqamiga yaqinlashsa, daromad aholining ma’lum guruhleri qo‘lida shunchalik kam to‘planadi va mamlakatdagi ijtimoiy tengsizlik darajasi shunchalik past bo‘ladi.

¹¹ Manba: <https://review.uz/oz/post/god-demonstracii-vozmojnostey-uzbekskey-modeli-borb-s-bednostyu>



1-rasm. Kichik biznesni rivojlantirish va kambag'allikka qarshi kurashishning muhim yo'nalishlari¹²

O'zbekistonda kichik biznes va tadbirkorlikning rivojlanishi eng avvalo mamlakatdagi kambag'allikni qisqartirishga katta ta'sir ko'rsatdi. Kambag'allik darajasi 2020 yilga qadar o'lchanmagan. Buning o'rniga kam ta'minlangan aholi ulushi hisoblab borilgan(2-jadval).

¹² Muallif ishlanmasi.

O‘zbekistonda kam ta‘minlangan aholi ulushi va kambag‘allik darajasi¹³(Uy xo‘jaliklari tanlanma kuzatuvlari ma‘lumotlariga asosan, %da)¹⁴

Ko‘rsatkichlar nomi	2010	2011	2012	2013	2014	2015	2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022
Respublika miqyosida													
Kam ta‘minlangan aholi ulushi	17,7	16,1	15,0	14,1	13,3	12,8	12,3	11,9	11,4	11,0	11,5	-	-
Kambag‘allik darajasi	-	-	-	-	-	-	-	-	-	-	-	17,0	14,1
Namangan viloyatida													
Kam ta‘minlangan aholi ulushi	18,1	15,3	15,2	11,9	12,6	12,1	11,7	10,5	11,9	10,6	11,2		
Kambag‘allik darajasi												14,1	12,8

Masalan, 2010-2020 yillar mobaynida kam ta‘minlangan aholi ulushi 6,2 punktga kamaygan. Ammo 2020 yildan O‘zbekistonda kambag‘allikka qarshi kurashish va aholining muayyan qatlami o‘rtasida kambag‘allik mavjudligini birinchi marta tan olib, uni qisqartirish bo‘yicha keng qamrovli ishlar boshladi. Natijada statistik ko‘rsatkichlar mazmuni ham o‘zgardi. Endilikda mamlakatning kambag‘allik darajasi hisoblana boshlandi va 2022 yilda mamlakatda kambag‘allik darajasi 14,1 foizni tashkil etgan. Bu ko‘rsatkich 2021 yilga nisbatan 2,9 foizga kamayganligini ko‘satmoqda. Namangan viloyatida ham 2022 yilda 12,8 foiz bo‘lib, o‘tgan davrga nisbatan kambag‘allik darajasini 1,3 foizga kamayishiga erishilgan.

Namangan viloyati hududlarida kichik biznes subyektlari salmog‘i bo‘yicha ma‘lumotlarga ko‘ra 2021-2022 yillarda Namangan shahar, Chust tumani, Namangan tumani va Uychi tumanlarida yuqori salmog‘ni tashkil etgan. 2022 yilda Namangan shahrida 0,4 foizga, Uchqo‘rg‘on tumani 0,4 foizga, Chortoq tumani 0,2 foizga, Chust tumanida 0,3 foizga va Yangiqo‘rg‘on tumanida 0,1 foizga o‘sishi qayd etilgan bo‘lsa, qolgan tumanlarda kichik biznes subyektlaridagi salmog‘i 2021 yilga nisbatan kamaygan. Tadqiqot davomida o‘rganilayotgan har ikkala yilda ham Chortoq, Yangiqo‘rg‘on, Norin va Mingbuloq tumanlari eng past ko‘rsatkichlarda bo‘lgan (3-jadval).

Kambag‘allik darajasining eng yuqori ko‘rsatkichi 2021 yilda Namangan shahar, Mingbuloq, Norin va Chust tumanlarida bo‘lsa, 2022 yilda bu tarkibda Chust tumanini o‘rniga Uchqo‘rg‘on tumani almashgan. Viloyatning barcha tumanlarida 2021 yilga nisbatan kambag‘allik darajasi kamayishini ko‘rishimiz mumkin. Kambag‘allik darajasi kamayishini eng yuqori ko‘rsatkichlari Namangan tumani, Namangan shahar va Norin tumanlariga to‘g‘ri keladi.

¹³ Jadval muallif tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi qo‘mitasi ma‘lumotlari asosida tuzilgan.

¹⁴ Izoh: 2001-yildan 2020-yilgacha Jahon Banki tavsiyasiga ko‘ra kam ta‘minlanganlik darajasi ko‘rsatkichi kunlik 2100 kkal miqdoridan kelib chiqib hisoblangan, 2021-yil uchun Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 27-avgustdagi 544-sonli qaroriga asosan, aholi daromadlarini MIX miqdoriga nisbatan solishtirish orqali hisoblangan.

Namangan viloyati hududlarida kichik biznes subyektlari va kambag'allik darajasiga oid korrelatsion bog'lanish, foizda¹⁵

№	Hududlar nomi	Kichik biznes subyektlari salmog'i		Kambag'allik darajasi	
		2021-yil	2022-yil	2021-yil	2022-yil
1	Namangan shahar	32,6	33,0	17,0	16,1
2	Mingbuloq tumani	4,5	4,3	15,5	15,0
3	Kosonsoy tumani	6,2	6,1	12,5	12,2
4	Namangan tumani	7,2	6,6	13,0	11,8
5	Norin tumani	5,0	5,0	14,9	14,0
6	Pop tumani	6,3	6,2	12,2	11,4
7	To'raqo'rg'on tumani	6,4	6,3	13,8	13,1
8	Uychi tumani	6,8	6,5	13,3	12,9
9	Uchqo'rg'on tumani	6,1	6,5	14,0	13,6
10	Chortoq tumani	5,9	6,1	12,3	11,8
11	Chust tumani	8,0	8,3	14,1	13,5
12	Yangiqo'rg'on tumani	5,0	5,1	12,1	11,7
	Viloyat bo'yicha	100	100	14,0	12,8

Mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlar asosida kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirish bilan aholi bandligini ta'minlash hamda daromadlarini ko'paytirib, aholini farovon yashash sharoitlarini yaxshilab borish lozim. Namangan viloyati hududlar bo'yicha kichik korxonalar va mikrofirmalardagi mehnat daftarchalari mavjud bo'lgan xodimlarning yillik o'rtacha sonini hududlar bo'yicha o'rganadigan bo'lsak, Namangan shahri, Uychi tumani, Namangan tumani, Pop tumani va Chust tumanlarida yuqori ko'rsatkichlarni ko'rishimiz mumkin. Mingbuloq tumani, Norin tumani va Yangiqo'rg'on tumanlarida esa kichik biznes subyektlarida faoliyat yuritayotgan mehnat resurslari sonini eng past ko'rsatkichlarda bo'lgan. Tadqiqot davomida o'rganilayotgan yillarda kichik korxonalar va mikrofirmalardagi mehnat daftarchalari mavjud bo'lgan xodimlarning soni to'liqsimon o'zgarishlarda bo'lgan(4-jadval).

Kichik biznes kapital sig'implari past bo'lgan yangi ish o'rinlarini tezda yaratishga qodir, bir vaqtning o'zida iqtisodiyotning ushbu tarmog'ida bir ish o'rni uchun kapital qiymati yirik korxonalariga qaraganda ancha past. Bundan tashqari, u kapitalning yanada sig'imli tarkibiga ega, ya'ni foydalaniladigan ishlab chiqarish vositalarining birligiga ko'proq mehnat birliklari to'g'ri keladi. Kichik biznes nafaqat to'g'ridan-to'g'ri va bilvosita qo'shimcha ish o'rinlarining paydo bo'lishiga olib keladi, balki mehnat bozorida yuqori raqobatbardosh bo'lmagan fuqarolarni mehnat faoliyatiga jalb qilgan holda tadbirkorlik faoliyati sohasini kengaytiradi. Olib borilgan ilmiy tadqiqotlarga tayanib ta'kidlash joizki, tadbirkorlikni rivojlantirish bilan kambag'allikni bartaraf etishning to'g'ri va eng samarali yo'llaridan biri aholi bandligi darajasini oshirishdir. Aholini ish bilan band etish va ularga munosib, yuqori daromadli ish o'rinlarini yaratish, har bir

¹⁵ Manba: Namangan viloyati Statistika Bosh boshqarmasi ma'lumotlari asosida muallif hisob-kitoblari.

davlat siyosatida o'ziga xos amalga oshirib boriladi. Bunday siyosat qamrovida shahar va qishloq joylarida tadbirkorlik uchun shart-sharoitlar, qulayliklar, biznes yuritish uchun muhit yaratilishi lozim.

4-jadval

Namangan viloyati hududlar bo'yicha kichik korxonalar va mikrofirmalardagi mehnat daftarchalari mavjud bo'lgan xodimlarning yillik o'rtacha soni (tashqi o'rindoshlarsiz)¹⁶


Hududlar nomi	Yillar				
	2018	2019	2020	2021	2022
Viloyat bo'yicha	56762	70677	66126	75231	69496
Namangan shahar	23853	28904	26856	30650	29171
Mingbuloq tumani	1261	1769	2041	2312	2406
Kosonsoy tumani	3311	4240	3811	4111	3763
Namangan tumani	4821	5860	4979	5953	4888
Norin tumani	1558	2503	2221	2358	2182
Pop tumani	2535	3527	4192	4716	4657
To'raqo'rg'on tumani	2921	4853	3882	4676	3586
Uychi tumani	4365	5432	5047	6283	5540
Uchqo'rg'on tumani	2609	3134	2555	2368	2426
Chortoq tumani	2516	2672	2683	3447	3803
Chust tumani	4807	5109	5162	5331	4121
Yangiqo'rg'on tumani	2205	2674	2697	3026	2953

Kichik biznes korxonalariga xodimlarni kam ta'minlangan oila vakillari tarkibidan ishga qabul qilingan hollarda kichik biznes va tadbirkorlikni tartibga soluvchi idoralar tomonidan tadbirkorlik subyektini mahalliy ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasi xizmatlari bilan ta'minlash orqali qo'llab-quvvatlash, tadbirkorlikni rivojlantirish bilan bir vaqtda kambag'allikni qisqartirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi(2 -rasm). Tadqiqot bilan qamrab olingan yillar davomida Namangan viloyatida kambag'al aholi toifasiga kiruvchi aholi qatlamidan "Temir daftarda" ro'yxatda turuvchi 32780 ta, "Ayollar daftarida" ro'yxatda turuvchi 34701 ta, "Yoshlar daftarida" ro'yxatda turuvchi 15750 ta aholi vakillarining mehnat bilan bandligi ta'minlangan. Shuningdek kichik biznes subyektlarida kambag'al aholi qatlami tarkibidan 77561 nafar yoki hududdagi aholi kambag'allik darajasidagi qatlamning 64 foizi aynan kichik biznes subyektlarida ish bilan bandligi ta'minlangan. Bu Namangan viloyatida o'ziga xos xususiyat bo'lib, kichik biznes bilan rivojlanganlik darajasining aholini ish bilan ta'minlashdagi roli bilan bog'liqdir.

Kichik biznes va tadbirkorlikni tartibga soluvchi idoralar tomonidan kichik biznes korxonalariga xodimlarni kam ta'minlangan oila vakillari tarkibidan ishga qabul qilingan hollarda tadbirkorlik subyektini mahalliy ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasi xizmatlari bilan ta'minlash orqali qo'llab-quvvatlash mexanizmi kam ta'minlangan oila vakillarini ijtimoiy faol aholi qatlamiga qo'shilishini ta'minlaydi. Bunda kichik biznes va tadbirkorlik subyektlarida

¹⁶ Manba: Namangan viloyati Statistika Bosh boshqarmasi ma'lumotlari asosida muallif hisob-kitoblari.

mehnat resurslaridan samarali foydalanish imkoniyatlari ortadi, tadbirkorlik subyektlarini iqtisodiy resurslar bilan ta'minlash, moliyaviy resurslar bilan ta'minlash hamda innovatsion infratuzilmalarni shakillantirish kambag'al aholi qatlamini qisqartirishga xizmat qiladi. Ushbu mexanizmni boshqaruvning eng quyi bo'g'ini mahalla fuqorolari orqali joriy etish ijobiy samara beradi.




2-rasm. Kam ta'minlangan oila vakillarini tadbirkorlikka yo'naltirish mexanizmi¹⁷

Dissertatsiyaning **“Kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirish orqali kambag'allikka qarshi kurashishning istiqbolli yo'nalishlari”** deb nomlangan uchinchi bobda iqtisodiy tadbirkorlik tafakkur rivojlantirish, tadbirkorlik subyektlarining kambag'al toifasiga kiritilgan aholi ixtiyoridagi mavjud iqtisodiy resurslardan tadbirkorlik yo'nalishida foydalanish bo'yicha o'zaro hamkorlik shakllarining tashkil etish ishlanmalari yaratilgan. Kichik biznes va tadbirkorlikni

¹⁷ Muallif ishlanmasi

rivojlantirish hamda kambag'allikni qisqartirishda inklyuziv iqtisodiy o'sishni ta'minlash yo'nalishlari yoritib berilgan. Kichik biznes subyektlari faoliyati va kambag'allikni qisqartirishga ta'sirining tahlili hamda ko'p omilli ekonometrik modellari asosida istiqbol ko'rsatkichlari aniqlangan. Fikrimizcha, hududdagi yuqori samarali faoliyat yuritayotgan tadbirkorlik subyektlarining kambag'al toifasiga kiritilgan aholi ixtiyoridagi mavjud iqtisodiy resurslardan tadbirkorlik yo'nalishida foydalanish bo'yicha o'zaro hamkorlik shakllarining tashkil etish maqsadga muvofiq. Kambag'al aholi qatlami ixtiyoridagi mavjud iqtisodiy resurslar orqali tadbirkorlik subyektlari bilan hamkorlikni yaratish mexanizmi tadbirkorlik subyektlari faoliyatiga kambag'al aholi toifasi ixtiyoridagi mavjud resurslardan samarali foydalanish har ikki tomon uchun manfaatli hisoblanadi. Tadbirkorlik subyektlari iqtisodiy resurslardan foydalanish imkoniyatiga ega bo'lsa, aholi qatlami o'z turmush darajasini yaxshilash orqali kambag'allik toifasidan chiqish imkoniyatiga ega bo'ladi (3-rasm).



